Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Dilshoda Xaminjon qizi Jo'raqo'ziyeva*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ turaevkhamijon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchini tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan, muammoni tahlil qila oladigan va maqbul yechimlarni izlay oladigan faol shaxs sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar

tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim, muammoli vaziyat, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, interfaol metodlar

DOI: 10.5281/zenodo.21743753

KIRISH

Muammoli ta'lim - bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, yechim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo'llaniladigan bir yangicha tizimdir.

Ta'lim jarayonida muammoli ta'limdan foydalanishning ustuvor jihatlari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim jarayoni qiziqarli va motivatsion bo'ladi
- o'quvchilar "o'zim yechim topaman" degan yondashuv bilan ishlaydi.
- Fikr yuritish, tanqidiy fikrlash va izlanish ko'nikmalari mustahkamlanadi.
- Bilim passiv qabul qilinishdan ko'ra chuqurroq o'zlashtiriladi
- muammoni yechish jarayonida o'rganilgan ma'lumotlar kontekstga bog'lanadi.
- Hamkorlik, kommunikatsiya va guruhda ishlash ko'nikmalaririvojlanadi.

Moslashtirilgan o'qitish — har bir o'quvchining ehtiyojiga qarab, o'rganish yo'llari va tezliklari farqlanishi mumkin. Bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Savol berishni odat qiling. Savol berish tanqidiy yondashuvga yordam beradi. Yangi fikr yoki ma'lumotni eshitganda qanday dalillarga asoslanganligi, manbasi haqida savollar bering. Uning shunchali qabul qilmasdan, ko'zdan kechirib, tekshirib ko'ring. Albatta, savollar mantiqqa to'g'ri kelishi kerak.
2. O'qishni odat qiling. Turli mavzularda kitoblar o'qing, yangiliklarni kuzating va manbalarni bir-biriga solishtiring. Birgina manbaga emas, balki turli taraflardan berilgan ma'lumotlarni kuzatib borish fikrlar ko'lami kengayishiga yordam beradi.

3. Bahs-munozaralarda qatnashing Fikrlar almashinuvi orqali inson o‘zining g‘oyalarini kengaytirib, boshqalarning nuqtai nazarini tushunishni o‘rganadi.
4. Muammolarni tahlil qiling. Har qanday vaziyat yoki muammoni qismlarga bo‘lib, sabablarini aniqlang va har taraflama yechim berishga harakat qiling. Biror voqeani boshdan oxirigacha tahlil qiling.
5. “Nega?” texnikasi Har qanday voqea yoki ma’lumotga nisbatan besh marta “Nega?” savolini bering. Masalan: “Nega bu hodisa sodir bo‘ldi?”, “Bu hodisaning oqibatlari qanday?” Bu mashq muammoni chuqurroq tahlil qilishni o‘rgatadi.
6. Tahlil mashqlari Har kuni biron bir fikr yoki g‘oyaning ijobiy va salbiy tomonlarini yozib chiqing. Bu qiyinchilik va imkoniyatlarni yanada aniqroq ko‘rishga yordam beradi.
7. Boshqotirmali o‘yinlar Sudoku, shaxmat, jumboqli savollar va shunga o‘xshash mantiqiy o‘yinlarni o‘ynab turing. Bu aqlingizni charxlaydi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan samarali ta’lim yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning asosiy g‘oyasi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni mustaqil ravishda bilim izlash, muammolarni hal etish va yangi xulosalarga kelish jarayoniga jalb qilishdan iborat.

Muammoli ta’limning nazariy asoslari XX asr pedagogikasida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishida faoliyatga asoslangan yondashuv, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi va konstruktivistik ta’lim konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki bilimlarni faol ravishda egallovchi subyekt sifatida qaraladi

Muammoli ta’lim jarayonining markazida muammoli vaziyat tushunchasi turadi. Muammoli vaziyat — bu o‘quvchining mavjud bilimlari bilan yangi bilimga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasida yuzaga keladigan intellektual qiyinchilik holatidir. Bunday vaziyat o‘quvchini fikrlashga, savollar berishga, taxminlar ilgari surishga va muammoni hal qilish yo‘llarini izlashga undaydi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topadi: muammoli vaziyatni dars jarayonida tashkil etish uchun

o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ma’lum bir muammo yoki savol qo‘yadi. Bu vaziyat o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi va mustaqil izlanishga undashi kerak.

Muammoli ta’limning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati

Tanqidiy fikrlash — bu shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, dalillar asosida xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslay olish qobiliyatidir. Muammoli ta’lim texnologiyasi aynan mana shu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi nazarda tutiladi. Birinchidan, muammoli ta’lim o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchi muammoni hal qilish jarayonida sabab va oqibat munosabatlarini aniqlaydi, mavjud ma’lumotlarni taqqoslaydi va muhim jihatlarni ajratib oladi.

Ikkinchidan, ushbu texnologiya o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantiradi. Chunki o‘quvchi tayyor javobni qabul qilmaydi, balki o‘z izlanishi orqali xulosaga keladi.

Uchinchidan, muammoli ta’lim ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bir muammoning bir nechta yechimlarini izlash o‘quvchilarda yangicha yondashuvlarni shakllantiradi.

To‘rtinchidan, muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning muloqot va fikr almashish ko‘nikmalari rivojlanadi. Guruhli muhokamalar, bahs-munozaralar va hamkorlikdagi faoliyat o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich ta’limda muammoli ta’limdan foydalanish imkoniyatlari

Boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’limni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Beriladigan muammolar o‘quvchilar uchun tushunarli, qiziqarli va hayotiy tajribalariga yaqin bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, muammoli ta’lim texnologiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafaqat bilim olish faoliyatini, balki ularning intellektual, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tanqidiy fikrlash ta’lim faoliyatining kuchayishini ta’minlaydi va

har bir o‘quvchining malakali rivojlanish darajasini aks ettiradi. Tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisi o‘zini takomillashtirish qobiliyatiga ega, bilimlarning turli sohalaridagi ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradi, ularni masalani har tomonlama o‘rganish holatini aniqlashtirish uchun fikrlash va mulohaza yuritish jarayoniga kiritadi, axborot manbasining yechimi va ishonchliligini baholash mezonlarini aniq belgilaydi. Maktabda o‘qish paytida ushbu fikrlash usulini o‘zlashtirish zarur masalalardan biri hisoblanadi. Zero, tanqidiy fikrlash – bu munozarali hodisa bo‘lib, u qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar va tajribani amaliy umumlashtirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Волков Е.В.// Развитие критического мышления.// М., -2004.
2. Кабышева М.О. Оценка эффективности выделенного курса химии для развития критического мышления // Вестник КазНацЖенПУ. – 2022.
3. Шарыпова Н.В., Павлова Н.В. Планирование развития универсальных учебных действий при обучении химии // Вестник Шадринского государственного педагогического университета. - 2018.
4. Бектемирова Т.В., Кожахметова О.В. Изменение практики преподавания и обучения как условие формирования критического мышления учащихся на уроках химии // Проблемы Науки. - 2016.
5. Чайка С.А. Возможности подхода STEM в преподавании химии // Современная практика образования. - 2017.
6. Brown, Lesley. (ed.) The New Shorter Oxford English Dictionary (1993) p. 551
7. Jalilovna M. “Ona tili darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi – ta’lim natijalariga erishish vositasi” Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2021.
8. Холматова, Д. А., & Рахматова, О. К. (2021). Теоретические основы разработки учебных пособий. Вопросы науки и образования, (29 (154)), 30-37.
9. Khujanazarova, G. (2023). PROFICIENCY IN COGNITIVE ACADEMIC LANGUAGE IS ESSENTIAL FOR THE LEARNER PARTICIPATION AND ENGAGEMENT THAT IS NECESSARY FOR SUBSEQUENT SUCCESS. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi,(6), 559-564.
10. “Lexical Investigations: Critical Thinking - Everything After Z by Dictionary.com”. Everything After Z by Dictionary.com (2013-yil 25-iyun). Qaraldi: 2018-yil 3-aprel.